

MAKTABGACHA YOSHDAGI TOVUSHLAR TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLARI BO‘LGAN BOLALAR BILAN KORREKSION ISHLAR MAZMUNI

Musayeva Nargiza Sayfullyevna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Maxsus pedagogika kafedrası professorı v.b.,

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar (dislaliya)ning kelib chiqish sabablari, turlari hamda ularni bartaraf etishning korreksion-logopedik ishlar mazmuni yoritilgan. Tadqiqotda artikulyatsion apparatning tuzilishi va funksional holati, fonematik idrokning rivojlanish darajasi hamda ijtimoiy-pedagogik omillarning nutq rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish oqibatida yuzaga keladigan yozma va og'zaki nutq buzilishlari ko'rsatib berilgan. Maqolada korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari — artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlarni differentsiallash va avtomatlashtirish jarayonlari tizimli ravishda bayon etilgan. Ayniqsa, R va L tovushlarini shakllantirishda qo'llaniladigan amaliy mashqlar, o'yin texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: dislaliya, tovush talaffuzi, artikulyatsiya, fonematik idrok, logopedik korreksiya, maktabgacha yosh, nutq buzilishlari, artikulyatsion gimnastika, differentsiatsiya, avtomatlashtirish, innovatsion metodlar.

Abstract. This article discusses the causes, types and content of correctional and speech therapy work to eliminate defects in the pronunciation of sounds (dyslalia) in preschool children. The study analyzes the structure and functional state of the articulatory apparatus, the level of development of phonemic perception, and the influence of socio-pedagogical factors on speech development. It also shows the disorders of written and oral speech that occur as a result of incorrect pronunciation of sounds. The article systematically describes the main areas of correctional work - articulatory gymnastics, the development of phonemic hearing, the processes of differentiation and automation of sounds. In particular, the effectiveness of practical exercises, game technologies and innovative approaches used in the formation of the sounds R and L is substantiated.

Keywords: dyslalia, sound pronunciation, articulation, phonemic perception, speech therapy, preschool age, speech disorders, articulatory gymnastics, differentiation, automation, innovative methods.

Аннотация. В данной статье рассматриваются причины, виды и содержание коррекционно-логопедической работы по устранению дефектов произношения звуков (дислалия) у детей дошкольного возраста. В исследовании анализируется структура и функциональное состояние артикуляционного аппарата, уровень развития фонемного восприятия и влияние социально-педагогических факторов на развитие речи. Также показаны нарушения письменной и устной речи, возникающие в результате неправильного произношения звуков. В статье систематически описываются основные направления коррекционной работы – артикуляционная гимнастика, развитие фонемного слуха, процессы дифференциации и автоматизации звуков. В частности, обосновывается эффективность практических упражнений, игровых технологий и инновационных подходов, используемых при формировании звуков Р и Л.

Ключевые слова: дислалия, произношение звуков, артикуляция, фонемное восприятие, логопедия, дошкольный возраст, нарушения речи, артикуляционная гимнастика, дифференциация, автоматизация, инновационные методы.

Kirish. Maktabgacha yosh davri bola rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda nutq faoliyati, tovush talaffuzi, fonematik idrok va kommunikativ

ko'nikmalar jadal shakllanadi. Nutq insonning asosiy muloqot vositasi sifatida uning ijtimoiylashuvi, atrof-muhitni anglash va bilimlarni egallashida muhim o'rin tutadi. Shu bois, bolalarda nutqning to'g'ri shakllanishi nafaqat lingvistik, balki psixologik va pedagogik ahamiyatga ham egadir.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar keng tarqalgan bo'lib, ular ko'pincha dislaliya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunday kamchiliklar artikulyatsion apparatdagi anatomik yoki funksional nuqsonlar, fonematik eshituvning yetarli rivojlanmaganligi, noto'g'ri nutqiy muhit va pedagogik qarovsizlik kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Agar bu muammolar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, ular keyinchalik yozma nutq buzilishlari, o'qishdagi qiyinchiliklar hamda bolaning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy logopediya fanida tovush talaffuzidagi kamchiliklarni erta aniqlash va samarali korreksiyalash muhim vazifa sifatida qaraladi. Bu jarayonda tizimli, bosqichma-bosqich va individual yondashuv asosida tashkil etilgan logopedik ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, artikulyatsion mashqlar, fonematik idrokni rivojlantirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish va ularni nutqda mustahkamlash kabi yo'nalishlar kompleks tarzda olib borilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Noto'g'ri talaffuz nutq kamchiligi haqidagi birinchi ma'lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq deb ko'rsatadilar.

Dislaliya termini xalqaro xarakterga ega bo'ldi (uning mazmuni hamda u aniqlagan buzilish turlari doimo mos kelmasa ham). Bu kelishmovchilik buzilishlarni aniqlashda tadqi-qotchilarning qanday ta'riflashni asos qilib olishiga bog'liq: anatomofiziologik, psixologik yoki lingvistik. Klinik mezonlarni odat bo'yicha ta'riflashda dislaliya turlarini turli talaffuz bu-zilishlari ko'pincha qator qo'yilgan deb ko'riladi. Psixologik va lingvistik mezonlar asosiga qo'yilgan dislaliya tushunchasiga, goh uning turli forma va turlari, goh fonetik va fonetiko-fonematik talaffuz buzilishlari kiritiladi. (masalan: R.E.Levina ishlarida).

Hozirgi davr ilmiy qarashlarning tanqidiy analizi dislaliya haqida logopediyaga kiritilgan tasavvurlarni qayta qurib chiqishni talab qiladi.

Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o'z fikrini, his-tuyg'ularini izhor qiladi, hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. Demak, nutq faoliyati aloqa o'rnatish vositasidir.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish jarayonini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologik asosini logopediya, maxsus pedagogika va psixolingvistika sohalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: kuzatish (bolalarning nutqiy faoliyatini tabiiy sharoitda tahlil qilish), diagnostik tekshiruv (tovush talaffuzi, artikulyatsion apparat holati va fonematik idrok darajasini aniqlash), pedagogik tajriba (korreksion-logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish), hamda natijalarni taqqoslash va tahlil qilish metodlari.

Korreksion ishlar frontal, guruhli va individual shakllarda olib borilib, artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlarni differensiallash va avtomatlashtirish mashqlari tizimli ravishda qo'llanildi. Shuningdek, o'yin texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar (gamifikatsiya elementlari, vizual va interaktiv mashqlar)dan foydalanildi.

Metodologiyaning asosiy tamoyillari sifatida tizimlilik, bosqichma-bosqichlik, individuallashtirish va uzluksizlik prinsiplariga amal qilindi.

Tadqiqot natijalari. Inson nutqi tovushlari muayyan ahamiyatga egadir 4-5 yoshli bolalarning ko'pchiligida tovushlar talaffuzi til normadagiga yaqinlashgan bo'ladi. Ayrim bolalar tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushli ikkinchi tovushdan farq qila olmaydilar, ayrim tovushlarni talaffuzda qo'llay olmaydilar, yoki nutqda boshqa tovushlarga almashtiradilar. Bu holatlar dislaliya termini bilan ataluvchi nutq buzilishini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-buzilish, lalia-nutq degan ma'noni anglatadi.

Mexanik (organik) dislaliya pereferik nutq apparatning (til, jag', tanglay, tish) organik buzilishi natijasidir.

Til tagidagi etning (yugancha) kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tomon ko'tarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi. Bunday hollarda to'g'ri artikulyatsiya qiyinlashadi.

Jag' tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonormalliklarga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Prognatiya-yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi. Progeniya-pastki jag' oldinga chiqqan bo'ladi.

Ochiq prikus-yuqori va pastki jag'lar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi. Ayrim hollarda bu oraliq faqat oldingi tishlar orasida bo'ladi (oldingi ochiq prikus).

Yoni ochiq prikus o'ng tomonli, chap tomonli va ikki tomonli bo'lishi mumkin.

Tishlarning (tish qatorining) noto'g'ri tuzilishi ham dislaliyaga sabab bo'lishi mumkin. Tishlar va jag'dagi kamchiliklarni bartaraf etish vrach-stomatolog tomonidan olib boriladi.

Tanglayning noto'g'ri tuzilishi ham tovushlarning to'g'ri talaffuziga xalaqit beradi. Tor, baland yoki past, yassi tanglay ko'pchilik tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasiga imkon bermaydi.

Lablarining qalinligi ingichka va kam harakatchanligi ham lab va lab-tish tovushlarini aniq talaffuziga xalaqit beradi.

Funksional dislaliyada perefirik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi.

Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oiladan nutqini noto'g'ri shakllantirishdir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga taqlid qiladilar. Bolani suyib u bilan «bola tilida» so'zlashadilar. Buning natijasida bolada tovushlarning to'g'ri talaffuzi kech rivojlanadi. Dislaliya bolalarda taqlid asosida ham yuzaga ha yuzaga kelishi mumkin. Tovushlar talaffuzi hali yetarli, to'g'ri shakllanmagan kichik yoshidagi bolalar bilan, tili chuchuk yoki noaniq, tez shoshib gapiradigan kishilar bilan doimo muloqatda bo'lishi bola nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha bola oilada tovushlarni noto'g'ri talaffuz etuvchi kishi nutqiga taqlid etadi. Bu esa funksional dislaliyaga sabab bo'ladi.

Oiladagi ikki tillilik, pedagogik qarovsizlik ham funksional dislaliyaga sabab bo'ladi. Bunda tovushlarga e'tibor bermaslik, boladagi kamchiliklarni to'g'rimaslik, to'g'ri va aniq talaffuz namunalari bermaslik hollari kuzda tutiladi.

Fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Bu holda tovushlar differentsiyasi (tovushlarni farqlash) qiyinlashadi. Bolalar asosan bir-biriga o'xshash: jarangli-jarangsiz, sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarni ajrata olmaydilar. Bu qiyinchiliklar natijasida tovushlarning to'g'ri talaffuzi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi.

Shu bilan birga, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, ayniqsa tovushlarni almashtirish hollari, o'z navbatida, fonematik eshituvning shakllanishining qiyinlashtiradi va kelgusida nutqning umumiy rivojlanmaganligiga va o'qish-yozishda buzilishlar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Dislaliya artikulyatsion apparat a'zolarining (til, lab, pastki jag') harakatchanligidagi kamchiliklar natijasida ham sodir bo'ladi. Bu hol bolaning tilni kerakli holatda ushlab tura olmasligi yoki bir harakatdan ikkinchi harakatga tez o'ta olmasligida namoyon bo'ladi.

Dislaliya funksional eshituvning pasayishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.

Tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin.

Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan: sonor (r, l), sirg'aluvchi (s, z,) va shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarida uchraydi.

Bolalarga tovushlar talaffuzining buzilishi tovushlarni nutqda yo'qligi, ularni buzib talaffuz etish va bir-biri bilan almashtirish hollari bilan namoyon bo'ladi.

Bu holatlarning har birini batafsil ko'rib chiqamiz. Nutqda tovushlarning yo'qligi ularning so'zning boshida (masalan, randa so'zi o'rniga bola «anda»), so'zning o'rtasida (tarvuz-«tavuz»), so'zining oxirida (qor-«qo») tushib qolishida ifodalanishi mumkin.

Tovushlarni buzib (noto'g'ri) talaffuz etish shunda ifodalanidiki, bunda tovushlarning to'g'ri talaffuzi o'rniga, shu tovushga yaqin lekin ona tili fonetika tizimida ifoda etilmaydigan tovush talaffuz etiladi. Masalan, tish aro sigmatizm, yon sigmatizm, valyar r (bunda til uchi tebranishi o'rniga yumshoq tanglay tebranadi), uvilyar r (bunda til uchi o'rniga kichik tilcha tebranadi).

Tovushlar tilning fonetik tizimida mavjud bo'lgan boshqa tovushlarga almashtirilishi mumkin. Ular quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

1) hosil bo'lish usuliga ko'ra o'xshash, artikulyatsiya o'rniga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, portlovchi til orqa k va g, portlovchi til oldi t va d tovushlari (masalan kitob so'zi o'rniga «titob»), gul so'zi o'rniga «dul»);

2) hosil bo'lish o'rniga ko'ra o'xshash, hosil bo'lish usuliga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan sirg'aluvchi til oldi s tovushi, portlovchi til oldi t tovushi bilan (soat o'rniga «toat»);

3) hosil bo'lish usuliga ko'ra o'xshash va artikulyatsiya organlarining ishtirokiga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan s tovushi, lab-tish a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan f tovushi bilan (sumka so'zi o'rniga «fumka»);

4) hosil bo'lish usuli va o'rniga ko'ra o'xshash, ovoz ishtirokiga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, jarangli tovushlar jarangsiz tovushlar bilan almashtiriladi (bola-«pola»), paypoq-«bayboq», zina-«sina»), gul-«kul»).

Buzilgan tovushlarning soniga qarab dislaliya yana oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Agarda to'rtta tovush talaffuzida kamchilik bo'lsa-oddiy dislaliya, agar beshta va undan ortiq tovush talaffuzida kamchilik bo'lsa, bu-murakkab dislaliya deb ataladi.

Agar bir fonetik gruppaga kiruvchi tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo'lsa (masalan, sirg'aluvchi s, z, j) bu-monomorf dislaliya. Agar u ikki va undan ortiq artikulyatsiya guruhiga tegishli bo'lsa (masalan, rotatsizm, sigmatizm, va lambdatsizm) bu-polimorf dislaliya bo'ladi.

Talaffuzidagi kamchiliklar o'z xarakteriga, ma'lum tovushlar gruppasiga tegishli bo'lishiga ko'ra dislaliya quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Sigmatizm (grekcha «sigma» «s» harfining nomini bildiradi). Bunda sirg'aluvchi (s, z) va shovqinli (sh, j, ch) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarning boshqa tovushlarga almashtirilishi parasigmatizm deb yuritiladi. Masalan, soat-«toat»), jo'ja-«do'da»), choynak-«toynak»).

2. Rotatsizm (grekcha ro harfi nomidan olingan bo'lib, «r» tovushni bildiradi) –r tovushning talaffuzidagi kamchiliklardir. R tovushini boshqa tovushlar bilan almashtirilishi pararotatsizm deb yuritiladi. Masalan, raketa-«yaketa»), rom-«lom»), ruchka-«yuchka»).

3. Lambdatsizm-(grekcha lambda harfini nomidan olingan bo'lib, l tovushini bildiradi). –l tovushining talaffuzidagi kamchilikdan iborat. L tovushining boshqa tovushlarga almashtirilishi paralambdatsizm deb yuritiladi. Masalan, lola-«yoya», gul-«guy».

4. Jaranglatish nuqsonlari-jarangli undosh tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. Bu kamchiliklar jarangli undosh tovushlarni jarangsiz undosh tovushlarga almashtirilishidir: b-p, d-t, v-f, z-s, j-z, g-k va boshqalar.

Dislaliya korreksiyanmaganda yuzaga keladigan muammolar

№	Muammo turi	Tavsifi
1	Disgrafiya (yozuv buzilishi)	Harflarni almashtirish, tushirib qoldirish, noto'g'ri yozish
2	Disleksiya (o'qish buzilishi)	Sekin o'qish, bo'g'inlab xatoli o'qish, mazmunni tushunmaslik
3	Fonematik idrok buzilishi	Tovushlarni farqlash qiyinligi saqlanib qoladi
4	Imlo xatolarining ko'pligi	Noto'g'ri talaffuz yozuvga ko'chadi
5	O'qish tezligining pastligi	O'qish avtomatlashtirilmaydi
6	Nutqiy muloqot qiyinchiliklari	Gapirishda noaniqlik, o'ziga ishonchsizlik
7	O'quv motivatsiyasining pasayishi	Darslarga qiziqish kamayadi

Bolalarda nutq kamchiliklari tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilish bilan chegaralanib qolmay, shuningdek tovushlarini yetarli farqlamaslik va so'zni tovush tomonidan tahlil va tarkib qilishdagi qiyinchiliklardan ham iborat.

Bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish qancha erta boshlansa, shuncha samarali yutuqlarga erishish mumkin.

Bolalardagi nuqsonlarning maktabgacha yoshda bartaraf etish tavsiya etiladi. Bunda mashg'ulotlardan keng foydalaniladi. Mashg'ulotlar frontal, guruhli va individual tarzda o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarda olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

- Nutqdagi noto'g'ri talaffuzni to'g'irlash;
- To'g'ri talaffuz malakalarini shakllantirish;
- Bolalarni nutqini diqqat bilan eshitishga o'rgatish;
- Fonematik idrokni rivojlantirish;
- Tovushlarni tahlil va tarkib qilish malakalarini shakllantirish.

Nutqning fonetik tomondagi kamchiliklarini bartaraf etish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Og'zaki nutqni idrok etishni shakllantirish;
- Artikulyatsion apparat motorikasini rivojlantirish;
- Sirg'aluvchi, shovqinli, sonor, til orqa va chuqur til orqa tovushlarni to'g'ri artikulyatsiyasini tarbiyalash.

Nutqning fonetik idrok tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Tovush artikulyatsiyasini aniqlash, bo'g'in va so'zlardan tovushlarni ajratish;

- Berilgan tovushning soʻzdagi oʻrnini topish (soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida);
- Soʻzlardan tovushlar ketma-ketligi va sonini aniqlash.

Fonematik idrokni rivojlantirish korreksion-logopedik ishning asosiy yoʻnalishidir. Bu ishlar tovushlar tahlili ustidagi ish bilan oʻzaro bogʻliqlikda olib boriladi. Ushbu jarayonda quyidagi ishlarni olib borish koʻzda tutiladi:

- Nutqdan tashqari, yaʼni nutqsiz tovushlarni bilish va ajratish;
- Maʼlum tovushni boʻgʻinlar ichidan ajratish;
- Maʼlum berilgan tovushga soʻz oʻylab topish;
- Bir tovush bilan farqlanadigan boʻgʻinlar tizimini qaytarish (bir-biridan uzoq va bir-biriga yaqin tovushlar asosida);
- Maʼlum tovushga rasm tanlash;
- Jarangli va jarangsiz tovushlari ajratish.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutq apparati, fonematik idroki va artikulyatsion koʻnikmalari jadal shakllanadigan, nutq madaniyati va muloqot kompetensiyalari poydevori qoʻyiladigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu davrda tovushlarni notoʻgʻri talaffuz qilish (dislaliya koʻrinishlari) kuzatilishi bolaning soʻz boyligi, tovush-harf mosligini anglash, oʻqish-yozishga tayyorgarligi, shuningdek, tengdoshlar bilan ijtimoiy muloqoti va oʻziga ishonchiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ayniqsa sonor tovushlar — R va L talaffuzi artikulyatsion jihatdan murakkab boʻlgani sababli, ularni toʻgʻri shakllantirish koʻpincha tizimli va bosqichma-bosqich logopedik yondashuvni talab etadi.

Amaliyotda R va L tovushlarini korreksiya qilishda artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish mashqlari, differensiasiya (R–L, L–Y va h.k.), avtomatlashtirish hamda nutqiy oʻyin elementlaridan foydalanish keng tarqalgan. Biroq zamonaviy taʼlim muhitida bolalarning diqqati va motivatsiyasini barqaror ushlab turish, uy sharoitida ota-ona ishtirokini kuchaytirish va mashgʻulotlar uzluksizligini taʼminlash uchun innovatsion metodlar majmuasini qoʻllash dolzarb boʻlib bormoqda. Xususan, gamifikatsiya, qisqa video-darslar, mobil ilovalar orqali mikro-mashqlar va biofeedback (talaffuz/nafas/ovoz parametrlari boʻyicha darhol qayta aloqa) kabi yondashuvlar logopedik jarayonni yanada qiziqarli, individual va nazorat qilinadigan koʻrinishga keltirishi mumkin.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutq apparati, fonematik idroki va artikulyatsion koʻnikmalari jadal shakllanadigan, nutq madaniyati va muloqot kompetensiyalari poydevori qoʻyiladigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu davrda tovushlarni notoʻgʻri talaffuz qilish (dislaliya koʻrinishlari) kuzatilishi bolaning soʻz boyligi, tovush-harf mosligini anglash, oʻqish-yozishga tayyorgarligi, shuningdek, tengdoshlar bilan ijtimoiy muloqoti va oʻziga ishonchiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ayniqsa sonor tovushlar — R va L talaffuzi artikulyatsion jihatdan murakkab boʻlgani sababli, ularni toʻgʻri shakllantirish koʻpincha tizimli va bosqichma-bosqich logopedik yondashuvni talab etadi.


“R” tovushi talaffuzi. Artikulatsiya a’zolarining harakatini faollashtirish, “R” tovushini aytishga tayyorgarlik bosqichini boshlash.

“R” tovushi talaffuzi murakkab tovushlar sirasiga kiradi. Bola uni aytishdan avval til, lab, jag‘ kabi artikulyatsiya a’zolarini tayyor holga keltirishi zarur. Bugungi dars og‘iz mushaklarini mashq qilish va tilni harakatga keltirishga qaratiladi.

Artikulatsion mashqlar (har biri 5-10 soniyadan 2 martadan):

1. “Otcha” – tilni tez-tez pastga va yuqoriga harakatlantiring.
2. “Nonni yalaymiz” – til uchini yuqori tanglayga bosib, sekin aylantiring.
3. “Tilni cho‘zamiz” – tilni iloji boricha oldinga chiqarib, ushlab turish.
4. “Pishir-pishir” – tilni tanglayga bosib, og‘izni ochib-yoping.
5. “SHoshqaloq” – tilni ikki tomonga tez harakatlantirish.

Har bir mashqni oynada bajarish, bolaning o‘zini kuzatishiga yordam beradi.



Amaliy topshiriq:

Bolangiz bilan oldin quyidagi harakatlarni qilib chiqing:

- Tilni yuqoriga, pastga, chapga, o‘ngga harakatlantiring.
- "La-la-la", "Le-le-le", "Lu-lu-lu" kabi bo‘g‘inlarni ayting.

O‘yin: “Til gimnastikasi labirinti”

Material: Oyoq ilib yuriladigan halqa, ip, arqon, yostiqchalar.

Qoidalar:

Bolani “labirint”dan o‘tkazing (arqon ustida yurish, yostiqqa sakrash), har harakatdan keyin biror mashq bajariladi (masalan, “otcha” mashqi, “nonni yalash”). O‘yin bilan harakat – logopedik darsni zeriktirmaydi, balki bolada qiziqish uyg‘otadi.

Uyga vazifa:

1. Har kuni ertalab va kechqurun 3 ta artikulatsion mashqni takrorlash.
2. “Tilim qayerda?” degan o‘yin o‘ynash: ota-ona tilda mashq ko‘rsatadi, bola uni takrorlaydi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar nutq rivojining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Dislaliya ko'rinishidagi buzilishlar artikulyatsion apparatning anatomik yoki funksional xususiyatlari, fonematik idrokning yetarli rivojlanmaganligi hamda noto'g'ri nutqiy muhit ta'sirida yuzaga kelishi mumkinligi aniqlandi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tovush talaffuzidagi kamchiliklar nafaqat og'zaki nutqqa, balki yozma nutqning shakllanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, disgrafiya va disleksiya kabi muammolar yuzaga kelish ehtimoli ortadi, bu esa bolalarning o'qish-yozish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Korreksion-logopedik ishlarining samaradorligi ularning tizimli, bosqichma-bosqich va individual yondashuv asosida tashkil etilishiga bog'liqdir. Artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlarni differentsiallash va nutqda avtomatlashtirish kabi yo'nalishlarning kompleks qo'llanilishi ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, o'yin texnologiyalari va zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish bolalarning motivatsiyasini oshirib, ta'lim jarayonini samaraliroq qiladi. Shunday qilib, maktabgacha yosh davrida olib boriladigan maqsadli va ilmiy asoslangan logopedik ishlar bolalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova M.Y., Aripova Sh.D. Logopediya: to'g'ri talaffuz qilamiz va yozamiz. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2015. – 160 b.
2. Shamurotova Z. Logopediya: me'yoriy talaffuzga o'rgatish. – Toshkent: Niso Poligraf, 2012. – 128 b.
3. Гулбева Г.Г. Коррекция нарушения фонематической стороны речи у дошкольников. – Москва: Просвещение, 2001. – 144 с.
4. Филичева Т.Б., Орлова О.С., Туманова Т.В. Основы дошкольной логопедии. – Москва: Эксмо, 2015. – 320 с.
5. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва: Просвещение, 2005. – 256 с.
6. Волкова Л.С. Логопедия. – Москва: Владос, 2009. – 703 с.
7. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичева Т.Б. Логопедия. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. – Москва: Просвещение, 2010. – 256 с.
8. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В. Коррекция общего недоразвития речи у дошкольников. – Санкт-Петербург: Союз, 2001. – 160 с.
9. Ткаченко Т.А. Если дошкольник плохо говорит. – Москва: Гном и Д, 2007. – 112 с.
10. Миронова С.А. Развитие речи дошкольников. – Москва: Академия, 2013. – 192 с.
11. Po'latova P. Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika). – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 240 b.
12. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 180 b.
13. Nurkeldiyeva D. Maxsus ta'lim muammolari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 150 b.
14. Shoumarov G'., Mamedov K. Psixologik xususiyatlar va diagnostika. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – 200 b.